

Navoiy viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalar


2025-yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar
- II. Navoiy viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar
- III. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar
- IV. Navoiy viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish
- V. Asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar

So'nggi besh yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko'rsatmoqdaki, u deyarli 3,0 barobarga ko'paydi, shuningdek 2025-yil yanvar-sentabr oylarida 2024-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 8,9 trln so'mga ko'p investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi



So'nggi besh yil ichida o'sish sur'atlarini ko'radigan bo'lsak, ular o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lib, 2024-yilda eng yuqori o'sish sur'ati – 130,9 % kuzatilgan bo'lsa, joriy davrda o'sish sur'ati 128,9 % ni tashkil qildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(choraklik\)](#)

[Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'ati \(choraklik\)](#)

[Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

Iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirishga 2025-yil yanvar-sentabr oylarida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 32,7 trln so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi va bu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 128,9 % ni tashkil etdi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

	Hajmi, mlrd so'm	o'sish sur'ati % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	
			2024-y.	2025-y.
Jami	32 691,4	128,9	100,0	100,0
markazlashgan investitsiyalar:	3 340,5	145,1	9,1	10,2
Respublika budjeti	503,70	117,9	1,7	1,5
Moliya vazirligi huzuridagi suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	-	-	-	-
tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari	-	-	-	-
<i>shu jumladan, mln AQSH dollarida</i>	-	x	x	x
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	2 836,8	151,3	7,4	8,7
<i>shu jumladan, mln AQSH dollarida</i>	224,8	x	x	x
markazlashmagan investitsiyalar:	29 350,9	127,3	90,9	89,8
korxona mablag'lari	3 431,4	152,0	8,9	10,5
aholi mablag'lari	1 705,7	106,3	6,1	5,2
to'g'ridan-to'g'ri, boshqa va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar	23 983,3	126,4	75,0	73,4
<i>shu jumladan, mln AQSH dollarida</i>	1 887,7	x	x	x
<i>shundan:</i>				
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	18 805,6	216,7	34,3	57,5
<i>shu jumladan, mln AQSH dollarida</i>	1 480,1	x	x	x
tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	230,5	100,3	0,9	0,7

2025-yil yanvar-sentabr oylarida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan hajm 3 340,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 145,1 % ni tashkil etdi. Ularning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi esa 10,2 % ga yetdi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Respublika budjeti hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)


[Korxonaning o'z mablag'lari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[Aholi mablag'lari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

Yillar bo'yicha markazlashgan va markazlashmagan moliyalashtirish
manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi



Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning
moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi

	Jami investitsiyalar, mlrd so'm	shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jamiga nisbatan % da)						
		Respublika budjeti	Korxona va tashkilot	Aholi	Xorijiy investitsiya va kredit	Suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari
Navoiy viloyati	32 691,4	1,6	10,5	5,2	82,0	-	-	0,7
Navoiy sh.	3 893,6	3,2	10,8	3,7	80,7	-	-	1,6
Zarafshon sh.	962,3	11,0	49,5	8,2	31,0	-	-	0,3
G'ozg'on sh.	715,9	3,9	1,1	2,3	92,7	-	-	-
<i>tumanlar</i>								
Konimex	1 359,3	0,7	45,0	5,9	47,9	-	-	0,5
Qiziltepa	1 060,6	9,8	8,8	28,8	49,4	-	-	3,2
Navbahor	1 393,7	1,0	34,6	15,0	47,7	-	-	1,7
Karmana	8 298,8	0,2	4,0	3,1	91,7	-	-	1,0
Nurota	7 986,9	0,1	1,0	2,4	96,5	-	-	-
Tomdi	2 950,8	-	1,6	0,8	97,6	-	-	-
Uchquduq	2 371,9	0,1	4,1	2,3	93,2	-	-	0,3
Xatirchi	1 697,6	5,0	45,9	20,4	28,2	-	-	0,5

II. Navoiy viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida ishlab chiqarish sanoati yetakchilik qilmoqda. Amalga oshirilayotgan yirik investitsiya loyihalari natijasida ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 6,9 trln so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 38,2 % i o'zlashtirildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

	Hajmi, mlrd so'm	umumiy hajmga nisbatan, % da	
		2024-y.	2025-y.
Asosiy kapitalga investitsiyalar – jami	32 691,4	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 738,4	2,6	5,3
tog'-kon sanoati	2 544,5	14,5	7,8
Ishlab chiqaradigan sanoat	13 415,2	45,2	41,0
elektr energiyasi, gaz, bug' va kondensiyalangan havo	9 921,2	25,4	30,4
suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish	1 693,9	0,3	5,2
Qurilish	466,9	2,6	1,4
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash	200,6	1,5	0,6
tashish va saqlash	431,2	0,8	1,3
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	89,4	0,5	0,3
axborot va aloqa	22,0	0,3	0,1
moliya va sug'urta faoliyati	30,6	0,1	0,1
kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat	14,2	0,1	0,04
ta'lim	253,0	0,4	0,8
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	287,8	0,4	0,9
san'at, ko'ngil ochish va dam olish	74,1	0,2	0,2
turar-joy qurilishiga investitsiyalar	1 041,9	3,8	3,2
boshqa faoliyat turlari	466,5	1,3	1,4

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi \(yillik\)](#)

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi \(choraklik\)](#)


III. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

2025-yil yanvar-sentabr oylarida jami 2,6 mlrd dollar xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilgan bo'lsa, ulardan yangi asosiy fondlarni yaratishga qaratilgan asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar 2,1 mlrd dollar yoki 32,7 trln so'mni tashkil etdi.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd so'm

	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlar
Navoiy viloyati	18 805,6	2 836,9	5 177,7
Navoiy sh.	2126	88,8	926
Zarafshon sh.	280,8	0,6	16,7
G'ozg'on sh.	663,6	-	-
<i>tumanlar</i>			
Konimex	434,8	-	215,7
Qiziltepa	485	12,8	25,9
Navbahor	548,6	115,8	-
Karmana	4 862,8	2 612,1	133,1
Nurota	7 631,7	-	72,3
Tomdi	776,1	6,8	2 096,1
Uchquduq	519,4	-	1 690,5
Xatirchi	476,8	-	1,4

Navoiy viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi \(yillik\)](#)

[Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi \(choraklik\)](#)

IV. Navoiy viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

2025-yil yanvar-sentabr oylarida jami 551,1 ming kv.m turar-joylar ishga tushirilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 103,3 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

	Turar-joylar, ming kv.m	Ulardan: qishloq joylarda ming kv.m	Suv tarmog'i, km	Gaz tarmog'i, km
Navoiy viloyati	551,1	465,2	-	-
Navoiy sh.	21,9	-	-	-
Zarafshon sh.	15,8	-	-	-
G'ozg'on sh.	4,1	-	-	-
<i>tumanlar</i>				
Konimex	5,5	5,5	-	-
Qiziltepa	92,2	71,8	-	-
Navbahor	93,8	93,8	-	-
Karmana	100,7	81,9	-	-
Nurota	61,7	56,8	-	-
Tomdi	1,7	1,7	-	-
Uchquduq	5,7	5,7	-	-
Xatirchi	148,0	148,0	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ishga tushirilgan uy-joylarning umumiy maydoni \(yillik\)](#)

[Ishga tushirilgan suv tarmoqlari uzunligi \(jami, yillik\)](#)

[Ishga tushirilgan gaz tarmoqlari uzunligi \(jami, yillik\)](#)

V. Asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarga barcha turdagi qurilish ishlariga qilingan xarajatlar; asbob-uskunalarini montaj qilish bo'yicha xarajatlar; mashina, asbob-uskunalar (montaj talab etiladigan va talab etilmaydigan), transport vositalari, jihoz va xo'jalik inventarini sotib olish; boshqa kapital ishlar va xarajatlar kiradi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar, ilgari boshqa tashkilotlarning asosiy fondlarida hisobga olingan asbob-uskunalar, binolar va inshootlar (yoki ularning ehtiyot qismlari)ni sotib olishga qilingan xarajatlarsiz keltirilgan.

Chet el investitsiyalari – asosan kelgusida foyda olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxona va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bu – korxonaga to'liq egalik qiluvchi yoki korxona aksionerlik kapitalining 10 % dan kam bo'lmagan qismini nazorat qiluvchi, ya'ni korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investor yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan kiritilgan investitsiyalar.

Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar yangi va import orqali xarid qilingan asosiy vositalarni o'z ichiga oladi. Bularga: ularning boshlang'ich qiymatini oshirishga olib keladigan yangi qurilish, kengaytirish, obyektlarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish uchun ketgan xarajatlar, mashinalar, asbob-uskunalar, transport vositalari, yer holatini yaxshilash uchun xarajatlar, geologik qidiruv ishlariga, asosiy podani shakllantirishga va ko'p yillik o'simliklarni o'tkazishga ketgan xarajatlar kiradi.

Mazkur ko'rsatkichga shuningdek, moliyalashtirishining barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hamda texnik va xayriya yordam, "MEN" shartnomalari, ta'sischi larning yangi asosiy vosita sifatidagi badallari, shuningdek, intellektual mulkchilik obyektlariga va intellektual faoliyat mahsulotlariga investitsiyalar kiritiladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1865/Asosiy-kapitalga-investitsiyalar.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1872/Iqtisodiy-faoliyat-turlari-boyicha-asosiy-kapitalga-ozlashtirilgan-investitsiyalar.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1867/Asosiy-kapitalga-xorijiy-investitsiya-va-kreditlar.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiyalar va qurilish
ishlari statistikasi bo'limi bosh
mutaxassisi

Ijrochi:

N. Bobonazarova
79 223-54-73 (8521)

Manzil:

